

INGLIZ TILI BO'YICHA TA'LIM XIZMATLARINI TAQDIM ETISH TO'G'RSIDA OMMAVIY OFERTA

Atama va ta'riflar

Ommaviy oferta – bu shartnoma tuzish bo'yicha taklif. Shartnoma ofertani (uning akseptini) shartsiz qabul qilish orqali tuziladi.

Ofertaning aksepti – ushbu Ofertaning 1.3. bandiga ko'rsatilgan harakatlarni to'liq yoki hech qanday shartlarsiz qabul qilish. Ofertaning aksepti Shartnoma tuzilishiga sababchi bo'ladi.

Bajaruvchi / O'quv markaz – 2025 yil 18 mayda berilgan 777593-son tasdiqnomaga asosan ta'lim xizmatlarini taqdim etuvchi yuridik shaxs.

O'quvchi/Buyurtmachi – ushbu shartnoma shartlarini qabul qilgan (ushbu ofertani akseptlagan), shuningdek bajaruvchi tomonidan tashkil etilgan Ingliz tili kurslarida Ingliz tilini o'rganayotgan jismoniy shaxs, xizmatlarning oxirgi foydalanuvchisi.

Cambridge Students App - bu o'quv markazining dasturiy ta'minoti hisoblanib, maxsus mobil platformalari uchun ishlab chiqilgan bo'lib (iOS, Android va boshqalar) "Cambridge APP" deb nomlanadi. Ushbu dasturiy ta'minot o'quvchilarga mashg'ulotlarni olib borishlari hamda o'quv markazi bilan yaqindan tanishishlari uchun yaratilgan maxsus mobil ilova hisoblanadi.

Kurs - o'quv markazi hamda O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan tanlangan va tasdiqlangan muayyan vaqt davomida o'quv markazining metodikasi bo'yicha ingliz tilini o'rgatish jarayoni.

Web-site - o'quv markazining internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'ida joylashgan veb sahifasi bo'lib quyidagi domen nomi (manzil, domen) orqali kirish mumkin: <https://cambridgeonline.uz>

Placement - ingliz tilini bilish darajasini aniqlashga qaratilgan bepul protsedura.

Cambridge point / coin - O'quvchi/Buyurtmachi o'quv mashg'ulotlari davomida rag'batlash uchun yo'lga qo'yilgan maxsus ballar tizimi.

IELTS Cashback - bu Cambridga o'quv markazining IELTS guruhlarida kursni tugatganiga 90 kundan oshmagan muddatda IELTS imtihonini 7.5 va undan yuqori ball olgan o'quvchilar uchun beriladigan bonus. Ariza sertifikat berilgan kundan boshlab 30 kun ichida o'qituvchiga topshirilishi lozim.

"CAMBRIDGE GROUP" MCHJ o'quv markazi – o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan jihozlar, materiallar, adabiyotlar va boshqa moddiy-texnika vositalari bilan jihozlangan, darslar bevosita o'tkaziladigan maxsus o'quv binosi.

1. Umumiy qoidalar

1.1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga asosan ushbu hujjat «CAMBRIDGE GROUP» MCHJning (keyinchalik matnda O'quv markazi deb nomlanadi) har qanday jismoniy shaxsga (keyinchalik matnda O'quvchi/Buyurtmachi deb nomlanadi) nisbatan Shartnomani unda keltirilgan shartlar asosida qabul qilishga yo'naltirilgan rasmiy ommaviy taklifi (ofertasi) hisoblanadi.

1.2. Ushbu Oferta rasmiy hujjat hisoblanadi va o'quv markazining quyida ko'rsatilgan manzillarda joylashgan filiallarda amalga oshiriladi:

- Toshkent shahri, Chilonzor t., Olmazor m-si, 6/7 (Drujba f-li);

- Toshkent shahri, Mirzo Ulugʻbek t., Irrigator m-si, 3 - uy (Darxon f-li);
- Toshkent shahri, Shayxontohur t, Farobiy berk koʻchasi 94 - uy (Tinchlik f-li);
- Toshkent shahri, Sergeli t, Yangi Sergeli yoʻli koʻchasi, 5 - uy (Sergeli f-li);
- Toshkent shahri, Yunusobod t., Yangishahar koʻchasi 10 - uy (Yunusobod f-li);
- Toshkent shahri, Chilonzor t., Muqimiy koʻchasi, 1A - uy (Novza f-li);
- Toshkent shahri, Chilonzor t., Chilonzor 10-kvartal, 34-uy (Inyaz f-li);
- Fargʻona viloyati, Fargʻona shahri, Maʼrifat MFY, Yusulish koʻchasi, 108-a-uy (Fargʻona f-li);
- Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Shohrux Mirzo koʻchasi, 7-uy (Samarqand f-li)

shuningdek, **cambridgeonline.uz** veb-manzili boʻyicha internet tarmogʻida joylashtirilgan.

1.3. Oʻquvchi/Buyurtmachi tomonidan oʻz shaxsiga doir maʼlumotlarni oʻquv markaziga taqdim etish (toʻliq ism, tugʻilgan sana, telefon raqami) oʻquv markazi administratsiyasida amalga oshiriladi.

1.4 Quyidagi har qanday harakatlarning birida Oʻquvchi/Buyurtmachi oferta shartlarini toʻliq va shartsiz qabul qilgan (akseptlagan) hisoblanadi:

- Xizmatlar uchun Oʻquvchi/Buyurtmachi tomonidan toʻlov amalga oshirilsa;
- Oʻquvchi/Buyurtmachining “Cambridge App” orqali shaxsiy kabinetida taklif shartlari bilan tanishganligini tasdiqlasa;

1.5. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 370-moddasi toʻrtinchi qismiga muvofiq, Ofertani qabul qilish Ofertada koʻrsatilgan shartlar boʻyicha shartnoma tuzishga tengdir, ushbu Ofertani qabul qilish (akseptlash) orqali shaxs ushbu Ofertaning Tomoniga aylanadi, bundan keyin Oʻquvchi/Buyurtmachi deb nomlanadi. Oʻquv markazi va Oʻquvchi/Buyurtmachi ham ushbu Oferta boʻyicha birgalikda Tomonlar, alohida esa Tomon deb yuritiladi.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Bajaruvchi Oʻquvchi/Buyurtmachining topshirigʻi bilan «CAMBRIDGE GROUP» MCHJ oʻquv markazida «Ingliz tili Kursi» dasturi boʻyicha taʼlim xizmatini koʻrsatish (keying oʻrinlarda «Xizmatlar» deb nomlanadi), Oʻquvchi/Buyurtmachi esa bu xizmat uchun haq toʻlash majburiyatini oladi.

2.2. Oʻn uch yoshdan oʻn sakkiz yoshgacha boʻlgan voyaga yetmaganlar nomidan ushbu ofertani Buyurtmachisi sifatida faqat ularning ota-onalari (voyaga yetmaganlarning qonuniy vakillari boʻlishi mumkin boʻlgan homiylar, vasiylar yoki boshqa shaxslar) tomonidan akseptlashi mumkin.

2.3. Xizmatlar ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanuvchi «Oʻquv markazining ingliz tili oʻqitish metodikasi»ga muvofiq koʻrsatiladi.

2.4. Oʻquv markazi cambridgeonline.uz veb-saytida eʼlon qilingan amaldagi narxlar roʻyxatiga muvofiq xizmatlar koʻrsatadi va Oʻquvchi/Buyurtmachi ushbu Ommaviy oferta shartlariga muvofiq xizmatlar uchun toʻlovni amalga oshiradi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

3.1 Oʻquv markazining huquq va majburiyatlari.

3.1.1. Oʻquv markazi ushbu Ommaviy ofertaning 2.1-bandida nazarda tutilgan xizmatlarni tashkil etish va tegishli tarzda bajarilishini taʼminlash majburiyatini oladi.

3.1.2. Oʻquv markazi Oʻquvchi/Buyurtmachini bosqich yakunida sinovdan oʻtkazish va test natijalariga asosan uni «Ingliz tili kurslarida oʻqitish Qoidalari»ga muvofiq keyingi taʼlim bosqichiga oʻtkazish/joriy

bosqichda qoldirish/o'qishni davom ettirishni rad etish va ushbu Ofertani bir tomonlama tartibda bekor qilishi mumkin.

3.1.3. O'quv markazi o'qish uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirilmagan talabani darslarga, shaxsiy kabinetga kirishini cheklash huquqiga ega. O'quvchi/Buyurtmachi darslardan chetlatilgan taqdirda, agar to'lovlarni amalga oshirib, O'quv markazi xizmatlaridan foydalanishni davom ettirishni istasa, O'quv markazi uni chetlatilishidan oldin o'qib turgan guruhga qaytarishga harakat qiladi. Biroq u o'qigan guruhda bo'sh o'rinlar qolmaganligi sababli yoki talaba guruh darslarini yetkazib ololmasligi ehtimoli bo'lgan hollarda O'quv markazi uni boshqa yangi guruhlarga birlashtirishga haqli.

3.1.4. O'quv markazi O'quvchi/Buyurtmachining rozilgisiz o'qitishning butun davri davomida o'qituvchini almashtirishga huquqiga ega. Ma'lum bir sabablarga ko'ra, asosiy o'qituvchi darslarni o'ta olmagan taqdirda, o'quv markazi o'sha darslar uchun o'rindosh yoki yordamchi o'qituvchi tayinlash huquqiga ega.

3.1.5. O'quv markazi, agar O'quvchi/Buyurtmachi talab qilgan holatlarda ham, o'qituvchini almashtirmaslik huquqiga ega.

3.1.6. Dars jadvali, o'quv guruhlari va o'quv mashg'ulotlari olib boriladigan filialning o'zgartirilishi taraflar kelishuviga ko'ra amalga oshiriladi. O'quv xonalari o'zgartirilishi o'quv markazi tomonidan mustaqil hal qilinadi.

3.1.7. Agar guruhda 7 nafardan kam o'quvchi qolsa, O'quv markazi guruhni yopish va o'quvchilarni boshqa guruhlarga taqsimlash huquqiga ega.

3.1.8. Agar O'quvchi/Buyurtmachi darslarni qoldirsa, O'quv markazi u tomonidan qoldirilgan dars uchun amalga oshirgan to'lovlarni boshqa shaxs hisobiga o'tkazish bo'yicha tranzaksiyalarni amalga oshirmaydi.

3.1.9. O'quv markazi Talabaning IELTS imtihon sertifikatlaridan faqat reklama materiali sifatida foydalanish huquqiga ega.

3.1.10. O'quv markazi mustaqil ravishda o'quv jarayonini amalga oshirish, baholash tizimlari, O'quvchi bilimini tekshirish shakllari, tartibi va davriyligini tanlash huquqiga ega.

3.1.11. O'quvchi/Buyurtmachi ushbu Ofertaning amal qilish muddati davomida qonun, ushbu Oferta shartlarini va an'anaviy normalarni buzgan bo'lsa, O'quv markazi O'quvchi/Buyurtmachini darslardan chetlashtirishga/shaxsiy kabinetga kirishini cheklashga haqli.

3.1.12. Agar O'quvchi/Buyurtmachi ta'lim jarayonida O'quv markazi xodimlarini yoki boshqa O'quvchi/Buyurtmachilarni og'zaki yoki yozma ravishda haqorat qilganligi dalillar va guvohlar orqali isbotlansa, O'quv markazi O'quvchi/Buyurtmachini darslardan chetlashtirishga/shaxsiy kabinetga kirishini cheklash huquqiga ega.

3.1.13. O'quvchi/Buyurtmachi kurs davomida 3 marotaba yakuniy imtihonlardan qoniqarsiz natijani qayd etsa, hamda imtihondan yiqilishi sababi o'quvchi yetarlicha harakat qilmayotgani deb topilsa, o'quvchi bilan tuzilgan shartnoma bir yil muddatga bekor qilinib, u bir yil muddatga darslardan chetlashtirilishi mumkin.

3.1.14. Cambridge Students App da O'quvchi/Buyurtmachi progressga ta'sir qiluvchi barcha vazifalar (homework, daily tasks) chiqqan vaqtdan boshlab 3 kun ichida bajarilgandagina o'quvchining progressiga qo'shiladi. Agar O'quvchi/Buyurtmachi ushbu muddat ichida vazifani bajarmasa, progressga ta'sir qilmaydi va vazifa "bajarilmadi" deb hisoblanadi.

3.1.15. O'quv markazi tomonidan ushbu Ommaviy Ofertaga o'zgartirilishi mumkin. Kiritilgan o'zgarishlar Ommaviy Oferta matnining bir qismi sifatida e'lon qilinishi bilan kuchga kirgan hisoblanadi. Binobarin, kiritilgan eski shartnomalarga ta'sir etmaydi. O'zgartirish kiritilgandan keyin yangi shartnomalar tuzilganda yoki eski shartnomalar yangilanganda, kiritilgan o'zgartirishlar shartnomaning bir qismi hisoblanadi.

3.1.16. O'quvchi (Buyurtmachi) berilgan uy vazifasini o'z vaqtida bajarmagan taqdirda, u vazifani to'liq topshirguniga qadar dars jarayonidan chetlatilishi mumkin. Agar ushbu holat har bir daraja davomida 3 (uch)

marotaba takrorlansa, O'quv markazi o'quvchini guruhdan butunlay chetlashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.2. O'quvchi/Buyurtmachining huquq va majburiyatlari.

3.2.1. O'quvchi/Buyurtmachi Shartnoma tuzilgunga va to'lov amalga oshirilgunga qadar, ushbu oferta mazmuni va shartlarini cambridgeonline.uz veb-saytida joylashtirilgan O'quv markazi xizmatlari narxi bilan tanishishi shart.

3.2.2. O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lovni amalga oshirish O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan ushbu Oferta shartlari bilan tanishish va qabul qilinishini anglatadi.

3.2.3. O'quvchi/Buyurtmachi har oyning 5-sanasiga qadar o'quv mashg'uloti uchun to'lovni amalga oshirishga majburdir.

3.2.4. O'quvchi/Buyurtmachi o'qituvchi tomonidan darslarga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha berilgan mustaqil topshiriqlarni bajarishga, tasdiqlangan jadvalga muvofiq mashg'ulotlarda ishtirok etishga majbur.

3.2.5. O'quvchi/Buyurtmachi ta'lim doirasida taqdim etilgan materiallar va ma'lumotlarni (qog'oz, elektron yoki boshqa shaklda) tijorat yoki notijorat maqsadlarda (nusxalash, nashr qilish, Internet-resurslarga joylashtirish, uchinchi shaxslarga berish yoki qayta sotish ko'rinishida) tarqatmaslik, olingan materiallar asosida tijoriy mahsulotlarni yaratish va ushbu ma'lumotlardan shaxsiy foydalanishdan tashqari har qanday usulda foydalanmaslik majburiyatini oladi.

3.2.6. Agar O'quvchi/Buyurtmachi guruhning tugatilishi munosabati bilan taklif qilingan variantlardan o'ziga mos bo'lgan boshqa guruhga o'tishga qaror qilsa, u holda O'quvchi/Buyurtmachi kurs uchun to'lovni amalga oshirish va ushbu guruhda o'qishni davom ettirish majburiyatini oladi.

3.2.7. O'quvchi/Buyurtmachi «Ingliz tili kurslarida o'qitish Qoidolari»ga (2-Ilovada ko'rsatilgan) rioya etish majburiyatini oladi.

3.2.8. O'quvchi/Buyurtmachi O'quv markazi tomonidan berilgan o'quv-uslubiy materiallarni va O'quv markazining o'quv jarayoniga kirish huquqini uchinchi shaxslarga bermaslik majburiyatini oladi.

3.2.9. O'quvchi/Buyurtmachi O'quv markazining dastlabki talabiga binoan u tomonidan O'quv markazining mol-mulkiga yetkazilgan har qanday moddiy zarar to'liq hajmda talabadan undiriladi.

3.2.10. O'quvchi/Buyurtmachi O'quv markazi hududida umum e'tirof etilgan odob axloq normalariga amal qilishi kerak. (Baland ovozda musiqa tinglashi, video va filmlar tomosha qilishi, shovqin ko'tarishi, o'quv markazi hududida tamaki va alkogol mahsulotlarni iste'mol qilish taqiqlanadi).

3.2.11. O'quvchi/Buyurtmachi O'quv markazining mulkidan o'quv mashg'ulotlarini amalga oshirish maqsadida foydalanish huquqiga ega.

3.2.12. O'quvchi/Buyurtmachi o'quv jarayoni bilan bog'liq masalalar yuzasidan O'quv markazi xodimiga murojaat qilish huquqiga ega.

3.2.13. O'quvchi/Buyurtmachi bilim, ko'nikmalarni baholash, shuningdek, ushbu baholash mezonlari haqida to'liq va ishonchli ma'lumot olish huquqiga ega.

3.2.14. Agar O'quvchi/Buyurtmachi o'quv jarayoni to'xtatmoqchi bo'lsa, uning hisobida qolgan mablag'larni yaqin qarindoshlariga (aka-uka, opa-singil, turmush o'rtoqlar orasida) o'tkazish huquqiga ega.

3.2.15 O'quvchi/Buyurtmachi o'z shaxsini tasdiqlashi uchun o'quv markaziga Face ID ma'lumotini berish majburiyatini oladi.

4. Xizmatlar narxi va hisob-kitob qilish tartibi.

- 4.1. Xizmatlarning narxi QQSni hisobga olgan holda narxlar ro'yxatida O'zbekiston Respublikasi UZS (so'm) da ko'rsatilgan (1-Ilova).
- 4.2. To'lovlar 12 ta mashg'ulot uchun har oyning 5 sanasiga qadar oldindan amalga oshirilishi shart. Ba'zi oylarda dars mashg'ulotlari kalendar oyning uzunligiga qarab 13-14 tagacha o'tiladi va ushbu mashg'ulotlar uchun to'lov undirilmaydi.
- 4.3 O'quvchi/Buyurtmachi ushbu shartnomaning 5.7 bandida ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov amalga oshiradi.
- 4.4. O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan birinchi darsidan so'ng Buyurtmachi/O'quvchi darajasini aniqlash natijalariga ko'ra ta'limning birinchi oyi uchun oylik to'lov oy yakuniga qadar qolgan darslar soniga proporsional ravishda taqsimlanib to'lanadi.
- 4.5. O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan qoldirilgan darslar uchun to'lov qaytarilmaydi.
- 4.6. Xizmatlar uchun to'lov naqd va naqdsiz (bank kartasi, onlayn to'lov ilovalari va pul o'tkazish yo'li bilan) ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin. Pul o'tkazish yo'li bilan to'lov amalga oshirilganda uni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar Buyurtmachi/O'quvchi tomonidan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 2 kun ichida taqdim etilishi kerak.
- 4.7. 3.1.4. banddagi holatda ham o'quv markaz o'z majburiyatini bajargan hisoblanadi va o'tilgan darslar uchun to'lov to'liq hisobga olinadi.
- 4.8. O'quvchi/Buyurtmachi 3 marotabagacha sinov darslarida tekin qatnashishi mumkin. Sinov darsiga qatnashgandan so'ng guruh ma'qul bo'lib darslarni davom ettirish istagini bildirsa, faqatgina so'ngi sinov darsi uchun to'lov amalga oshirishi kerak. Agarda sinov darsi O'quvchi/Buyurtmachiga ma'qul kelmasa, qatnashilingan sinov darsi uchun to'lov undirilmaydi.

5. Umumiy tartiblar.

- 5.1. Agar dars mashg'ulotlari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan rasmiy bayram kunlariga to'g'ri kelsa yoki o'quv markazining binosiga kirish vaqtincha cheklansa, ushbu kunlarda sababli darslar o'tkazilinmaydi. O'tkazilinmagan darslar kelgusi oylarda darslar soni 12 tadan ko'p bo'lish hisobiga qoplab beriladi. Agar o'quvchi kelgusi oydan boshlab o'qishni davom ettirmasa, bekor qilingan dars(lar) uchun to'langan mablag' o'quvchiga to'liq qaytariladi.
- 5.2. O'quv markazi bir oy davomida 16 kishigacha bo'lgan guruhda 80 daqiqa davomida 12 ta mashg'ulot o'tkaziladi.
- 5.3. Agar O'quvchi/Buyurtmachi ma'lum miqdordagi darslarni o'tkazib yuborsa va o'qishni davom ettirmoqchi bo'lsa, u holda 12 ta mashg'ulot uchun to'liq miqdorda to'lov undiriladi. Shuningdek, O'quvchi/Buyurtmachi to'lov muddati tugagunga qadar O'quv markazini tark etish haqida call markazga (+998 78 888 77 74) qo'ng'iroq qilib ogohlantirmagan bo'lsa, to'lov kelasi oyning boshidagi 3 ta mashg'ulot uchun undiriladi.
- 5.4. Mijoz/talaba guruhda joy band qilib turgan o'rni uchun to'lov amalga oshirishi kerak. Quyidagi hollarda mijoz guruhda joy egallab turgan hisoblanadi:
- 1- holat: agar talaba oy boshida o'qishni to'xtatsa va bu haqda o'quv markazni ogohlantirmasa, talaba 3 ta dars guruhda joy egallab turgan hisoblanadi va ushbu dars uchun to'lovni amalga oshirishi kerak bo'ladi.
 - 2-holat: agar talaba oy boshida 3 ta darsdan birida qatnashib keyin o'qishni to'xtatsa va bu haqda o'quv markazni ogohlantirmasa, talaba 3 ta dars guruhda joy egallab turgan hisoblanadi va ushbu dars uchun to'lovni amalga oshirishi kerak bo'ladi.

3- holat: agar talaba oy boshida ma'lum bir sondagi darslarda qatnashmasa va o'qishni to'xtatish istagini bildirib o'quv markazni ogohlantirsa, talaba ogohlantirgungacha bo'lgan davrda guruhda joy egallab turgan darslari uchun to'lovni amalga oshirishi kerak bo'ladi.

5.5. O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan to'lov amalga oshirilganidan so'ng o'quv markazi tomonidan O'quvchiga bir dona kitob va bir dona daftar dars mashg'ulotlarda foydalanishi uchun bepul taqdim qilinadi. Agarda O'quvchi/Buyurtmachi o'ziga taqdim etilgan kitob va daftarlarni kurs davomida yo'qotsa yoki yaroqsiz holga keltirib qo'ysa, yangi kitob va daftarlarni qo'shimcha to'lov evaziga sotib olishi mumkin.

5.6. O'quv markazi dars mashg'ulotlaridan tashqari buyurtmachining so'roviga ko'ra o'zlashtirish darajasini oshirish uchun qo'shimcha o'qituvchi (support teacher) bilan bepul ta'minlaydi. Ushbu qo'shimcha darslar tomonlarning kelishuviga va vaqtlarning to'g'ri kelishiga qarab "Cambridge Students App" orqali belgilanadi.

5.7. Har bir daraja davomiyligi 37 ta dars va kurs so'ngida 2 kunlik yakuniy imtihonni tashkil etadi.

5.8. Cambridge Students App orqali buyurtma berilgan maxsulot 1 oy ichida filial kassasidan olib ketilmasa, buyurtma bekor qilinadi va xarid uchun sarflangan coinlar qaytarib berilmaydi.

6. Boshqa shartlar

6.1. Bajaruvchi Buyurtmachi/O'quvchi oldida quyidagi hollarda javobgar hisoblanmaydi:

6.1.1. Kursning yakuniy natijalari qoniqarli bo'lmaganligi O'quvchi/Buyurtmachining aybi bilan bo'lsa (darslarga ishtirok etmaslik, uy vazifalarini bajarmaslik, Kurs dasturini bajarmaslik va h.k.);

6.1.2. Agar majburiyatlarni lozim darajada bajarmaslik O'quv markazining aybisiz vujudga kelsa;

6.1.3. Agar majburiyatlarni lozim darajada bajarilmaganligi O'quvchi/Buyurtmachining aybi bilan sodir etilgan bo'lsa;

6.1.4. Fors-major holatlari yuzaga kelganda.

6.2. O'quv markazi O'quvchi/Buyurtmachiga ushbu Ommaviy oferta bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni quyidagilarga asosan rad etishga haqli:

6.2.1. Ushbu ofertada nazarda tutilgan majburiyatlarni bir necha marta buzsa, bu o'z navbatida O'quv markazi tomonidan majburiyatlarning bajarilishini qiyinlashtirsa va O'quv markazining boshqa o'quvchilari va xodimlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa;

6.2.2. Ommaviy ofertada belgilangan to'lovni amalga oshirish muddatlarini buzsa;

6.2.3. Tomonlar o'z vaqtida zarur choralarni ko'rish uchun ushbu Ommaviy oferta shartlarini bajarishga to'sqinlik qilayotgan holatlar haqida bir-birlarini zudlik bilan xabardor qilish majburiyatini oladilar.

6.2.4 Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

1- ilova «Xizmatlar narxi»

2- ilova «Ingliz tili kurslarida o'qitish qoidalari».

3- ilova «Cambridge points/coinslarni jamg'arish va ishlatish tartibi»

7. Fors-Major

7.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar bu yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida sodir bo'lsa, jumladan: yong'inlar, zilzilalar, epidemiya va pandemiyalar holatlari, harbiy harakatlar va boshqalar natijasida, agar bu holatlar ushbu Shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir qilgan bo'lsa.

7.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkonsiz bo'lgan Tomon o'n kun ichida yuqorida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganligi va bekor qilinganligi to'g'risida ikkinchi tomonni xabardor qilishi shart.

8. Oferta shartnomaning amal qilish muddati va ko'rsatilgan xizmatlarni topshirish-qabul qilish tartibi.

8.1. O'quvchi/Buyurtmachi ushbu Ommaviy ofertaning barcha shartlari unga tushunarli ekanligini kafolatlaydi va O'quvchi/Buyurtmachi shartlarni hech qanday boshqa shartlarsiz va to'liq qabul qiladi.

8.2. Shartnoma tuzilgan (oferta akseptlangan) paytdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

8.3. Ushbu Ommaviy oferta yuqorida qayd etilgan maqsadlar doirasida, cheklanmagan muddatga tuziladi.

8.4. Oferta shartnomasini bekor qilishda shartnomani bekor qilish to'g'risidagi dalolatnoma tuzilmaydi va tomonlar uni imzolamaydi.

8.5. Ingliz tilini o'rgatish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar tugatilgandan so'ng ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi dalolatnoma tuzilmaydi va imzolanmaydi. Qabul qilish dalolatnomalarni imzolamasdan amalga oshiriladi. Oxirgi pullik dars tugaganidan keyin o'n kalendar kun ichida O'quv markazi O'quvchi/Buyurtmachidan o'tkazilgan darsning sifati bo'yicha asoslantirilgan e'tirozini call markazga (+998 78 888 77 74) qo'ng'iroq qilib aytmasa, xizmatlar to'g'ri ko'rsatilgan va Buyurtmachi tomonidan to'liq qabul qilingan hisoblanadi.

8.6. Ushbu Ommaviy ofertani bajarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar Tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Agar ular muzokaralar yo'li bilan bartaraf etishning iloji bo'lmasa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etilishi kerak.

9. Rekvizitlar

«CAMBRIDGE GROUP» MCHJ – 2025 yil 18 mayda berilgan 777593-son tasdiqnomaga asosan ta'lim xizmatlarini taqdim etuvchi yuridik shaxs.

Yuridik manzili: Toshkent shahri, Chilonzor t., m-v Olmazor m-si, 6/7;

STIR: 305 803 863;

IFUT: 85590;

Tel.: 78 777 77 74

Direktor: Choriyev B. R.

Toshkent shahrida joylashgan filiallar uchun ta’rif (Sergeli va Inyaz filiallaridan tashqari)

Ta’rif nomi	Guruhdagi tinglovchilar soni	Bir oyda mashg’ulotlar soni	Har bir mashg’ulot narxi (UZS)	To’liq bir oy ta’lim uchun to’lov narxi (qolgan filiallar) (UZS)
Group GE	14±2	12	87 500	1 050 000
Group IELTS	14±2	12	87 500	1 050 000
Individual	1	12	287 500	3 450 000
Mini Group 2x	2	12	162 500	1 950 000
Mini Group 3x	3	12	137 500	1 650 000
Mini Group 4x	4	12	115 000	1 380 000

Sergeli va Inyaz filiallari uchun ta’rif

Ta’rif nomi	Guruhdagi tinglovchilar soni	Bir oyda mashg’ulotlar soni	Har bir mashg’ulot narxi (UZS)	To’liq bir oy ta’lim uchun to’lov narxi (qolgan filiallar) (UZS)
Group GE	14±2	12	80 000	960 000
Group IELTS	14±2	12	80 000	960 000
Individual	1	12	287 000	3 450 000
Mini Group 2x	2	12	162 500	1 950 000
Mini Group 3x	3	12	137 500	1 650 000
Mini Group 4x	4	12	115 000	1 380 000

Samarqand viloyatida joylashgan filiali uchun ta’rif

Ta’rif nomi	Guruhdagi tinglovchilar soni	Bir oyda mashg’ulotlar soni	Har bir mashg’ulot narxi (UZS)	To’liq bir oy ta’lim uchun to’lov narxi (qolgan filiallar) (UZS)
Group GE	14±2	12	77 500	930 000
Group IELTS	14±2	12	77 500	930 000

Individual	1	12	~250 000	3 000 000
Mini Group 2x	2	12	150 000	1 800 000
Mini Group 3x	3	12	125 000	1 500 000
Mini Group 4x	4	12	~100 000	1 200 000

Farg'ona viloyatida joylashgan filial uchun ta'rif				
Ta'rif nomi	Guruhdagi tinglovchilar soni	Bir oyda mashg'ulotlar soni	Har bir mashg'ulot narxi (UZS)	To'liq bir oy ta'lim uchun to'lov narxi (qolgan filiallar) (UZS)
Group GE	14±2	12	72 500	870 000
Group IELTS	14±2	12	72 500	870 000
Individual	1	12	~250 000	3 000 000
Mini Group 2x	2	12	150 000	1 800 000
Mini Group 3x	3	12	125 000	1 500 000
Mini Group 4x	4	12	~100 000	1 200 000

2- Ilova

«CAMBRIDGE GROUP» MCHJning ingliz tili kurslarida o'qitish qoidalarini.

Darajani aniqlash:

Ingliz tilini bilish darajasini aniqlash uchun O'quvchi/Buyurtmachi O'quv markazi/Bajaruvchi tomonidan tuzilgan testlardan o'tishi shart. Test sinovlari natijalariga ko'ra, Bajaruvchi ingliz tilini bilish darajasini aniqlaydi va O'quvchi/Buyurtmachini tegishli darajadagi guruhlariga taqsimlaydi.

Keyingi bosqichga o'tish:

Har bir bosqichning oxirida O'quvchi/Buyurtmachi Bajaruvchi tomonidan tashkil etiladigan dasturi bo'yicha yakuniy imtihondan o'tishi va 65 balldan yuqori ball to'plashi shart. Agar O'quvchi/Buyurtmachi kerakli miqdordagi ball to'play olmasa, O'quvchi/Buyurtmachi o'z mablag'lari hisobidan qo'shimcha darslar orqali qayta o'sha darajani o'qitilishi va imtihonni qayta topshirishga urinib ko'rishi mumkin. Agar talaba uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan kunda imtihonga kelmasa, Bajaruvchi o'z xohishiga ko'ra u uchun qayta imtihon tashkil etish yoki qayta imtihon o'tkazishni rad etishga haqli.

Pre-IELTS darajasidan IELTS Standart darajasiga o'tish uchun O'quvchi/Buyurtmachi o'quv markazida mavjud bo'lgan Mock imtihondan (1 martalik) 5.0 ball (Writing 4.5) yoki yakuniy imtihondan 65 balldan yuqori ball to'plashi lozim. IELTS Standart darajasidan IELTS Advanced darajasiga o'tish uchun O'quvchi/Buyurtmachi o'quv markazida mavjud bo'lgan Mock imtihondan 5.5 ball to'plashi lozim.

Agar O'quvchi/Buyurtmachi Cambridge o'quv markazining kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagani haqida maxsus sertifikatni olmoqchi bo'lsa, imtihondan keyingi umumiy Progress hisoblangan holda quyidagi tartibda sertifikatni olishi mumkin:

65% - 80% C sertifikati

81% - 90% B sertifikati

91% - 100% A sertifikati

Guruhni/o'qituvchini almashtirish:

O'quvchi/Buyurtmachi guruhni almashtirish uchun filial administratsiyasi yoki mijozlarni qo'llab quvvatlash call-markaziga (+998 78 888 77 74) aloqaga chiqish orqali guruhlarini almashtirishi mumkin. Agar guruhning darajasi O'quvchi/Buyurtmachining bilimiga mos kelmasa yoki taklif qilingan vaqt unga mos kelmasa, bu holda guruh Bajaruvchi ma'muriyati yordamida o'zgartiriladi.

Agar O'quvchi ishtirok etadigan guruhdagi xizmatlarning sifati unga yoqmasa, O'quvchi/Buyurtmachi filial administratsiyasi bilan kelishilgan holda boshqa guruhga o'tishni, birinchi darsdan keyin darhol o'qituvchisini almashtirishni so'rash huquqiga ega.

Darslarni qoldirish:

Agar O'quvchi/Buyurtmachi belgilangan vaqtda darsga kelmasa, Markaz darsni O'quvchi/Buyurtmachisiz boshlashga haqli. O'quvchi/Buyurtmachi belgilangan vaqtda kelmagan taqdirda, O'quvchi/Buyurtmachining aybi bilan dars o'tkazib yuborilgan deb hisoblanadi.

To'lovni qaytarish:

O'quvchi/Buyurtmachi Pre-IELTS darajasini to'liq yakunlaganidan so'ng o'qishni vaqtincha to'xtatishga qaror qilsa yoki IELTS standart va IELTS Advanced kursini yakunlaganda, mijozning o'yning oxirigacha ortib qolgan miqdordagi to'lovi qaytariladi.

Ota-onalar bilan aloqa:

Har bir voyaga yetmagan O'quvchi o'z ota-onasi yoki ularning vasiy(homiy)lari haqida ma'lumot berishi shart. Darslarga borish, pul to'lash va imtihon topshirish bilan bog'liq barcha savollarga javoblarni vakillar mijozlarni qo'llab quvvatlash call-markaziga (+998 78 888 77 74) aloqaga chiqish orqali olishi mumkin.

Yosh cheklovlari:

Bajaruvchi xizmatlarni taqdim etadigan minimal yosh – 12 (o'n ikki) yosh.

Adabiyotlar:

Kurs uchun to'lovni amalga oshirgandan so'ng, Bajaruvchi har bir O'quvchi/Buyurtmachiga har bir darajaga tegishli barcha kerakli o'quv materiallarini taqdim etadi.

O'quv markazida o'zini tutish:

- O'quvchi darsga barcha kerakli darsliklar va kanselyariya buyumlari bilan kelish;
- O'quvchi/Buyurtmachining alkohol, giyohvandlik yoki toksik mastlik holatida darslarga ishtirok etishi taqiqlanadi;
- O'quvchi/Buyurtmachi dars vaqtida chalg'ishi va boshqa talabalarni chalg'itishi taqiqlanadi;
- O'quvchi/Buyurtmachi xodimlar uchun ajratilgan maxsus hududlarga kirishi taqiqlanadi;
- O'quvchi/Buyurtmachi markaz hududida tozalik va tartibni saqlash majburiyatini oladi;
- O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan darslarni AUDIO va VIDEO yozuvlarga tushurish taqiqlanadi;
- O'quvchi/Buyurtmachi O'quv markazi mol-mulkiga vijdonan munosabatda bo'lishi shart.

3- Ilova**«Cambridge points/coinslarni jamg'arish va ishlatish tartibi»**

1. O'quvchi/buyurtmachi o'quv markazida dars mashg'ulotlarda ishtirok etishi orqali **Cambridge points(ball)** jamg'arish imkoniyatiga ega. Ushbu points(ballar) dars mashg'ulotiga vaqtida kelganlik, berilgan uyga vaziflarni to'liq va to'g'ri bajarganlik, video materiallardan maqsadli foydalanganlik va boshqa holatlar uchun taqdim qilinadi.

2. O'quvchi/buyurtmachi to'plagan points(ball)larni **Cambridge coins(onlayn valyuta)**ga almashtirish mumkin bo'ladi. **10 Cambridge points=1 Cambridge coinga** teng.
3. O'quvchi/buyurtmachi o'z **Cambridge coin(onlayn valyuta)**lariga **Cambridge shop** onlayn do'konda mavjud bo'lgan mahsulotlarni sotib olishi mumkin.
4. **Cambridge shop**da mavjud bo'lgan mahsulotlarning narxlari o'quv markazi tomonidan mustaqil belgilanadi.
5. O'quvchi/buyurtmachi tomonidan **Cambridge shop**dan sotib olgan mahsulotini **4 hafta** davomida olib ketmasa omborga qaytariladi va **Cambridge coins(onlayn valyuta)**lar qaytarib berilmaydi.
6. O'quv markazida yakshanba kunlari tashkil etiladigan tadbirlarda ishtirok etish O'quvchi/buyurtmachi xohishiga ko'ra amalga oshiriladi. Tadbirlarda bepul yoki **Cambridge coins (onlayn valyuta) vositasida to'lovni amalga oshirish orqali ishtirok etish mumkin.**
7. O'tkaziladigan tadbirlarda o'rinlar cheklanganligi sababli, joylarni band qilishga ulgurgan ishtirokchilargina qatnashish huquqiga ega bo'ladi.
8. O'quv markazida yakshanba kunlari o'tkaziladigan **mock exam**da ingliz tilini bilish darajasi IELTSga mos bo'lgan O'quvchi/buyurtmachilar ishtirok etishi mumkin bo'ladi. Ushbu imtixonlar bepul tashkil qilinadi. **Mock exam**da ajratilgan **joylar soni cheklangan** bo'lib, joylarni band qilishga ulgurgan ishtirokchilargina qatnashish huquqiga ega bo'ladi.
9. Cashback faqatgina ruxsat etilgan rasmiy IELTS natijalari asosida quyidagi mezonlarga ko'ra taqdim etiladi:

IELTS balli	Mukofot miqdori	Eng kam o'qish davri talabi
7.5	1.000.000 UZS	6 oy

IELTS balli	Mukofot miqdori	Eng kam o'qish davri talabi
8.0	1.000.000 UZS	6 oy
	2.000.000 UZS	9 oy

IELTS balli	Mukofot miqdori	Eng kam o'qish davri talabi
8.5 yoki 9.0	1.000.000 UZS	6 oy
	2.000.000 UZS	9 oy
	1.000 USD (AQSH dollarida)	12 oy